

Date: 1st November-2025

RAUF PARFI IJODINING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

Norboyeva Zarina Yusuf qizi

Turon universiteti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola o'zbek modern she'riyatining yirik namoyandasi Rauf Parfi ijodini zamonaviy adabiyotshunoslik nazariyalari kontekstida qayta talqin qiladi. Shuningdek, shoir ijodining fenomenologik tahlili, estetik konseptning shakllanish omillari, postmodern paradigma-dagi tasviriy fikrlash xususiyatlari ochib beriladi. Shoir she'rlari zamonaviy estetik oqimlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganilib, uning ijodiy tizimidagi "ruhiy poetsiya", "ichki rezonans" kabi kategoriyalar nazariy jihatdan asoslanadi. Maqola yakunida Rauf Parfi merosining yangi kontekstlarda o'qilishi uning poetikasini yangi ilmiy paradigmalar orqali interpretatsiya qilish zarurati bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: Rauf Parfi poetikasi, poetik model, lirizm, postmodern tafakkur, poetik konseptsiya, fenomenologik tahlil, ichki rezonans, estetik paradigma, poetik semantika, matnning kontseptual mohiyati, badiiy-falsafiy tizim.

O'zbek adabiyoti o'z tarixiy taraqqiyoti davomida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. Yaratilgan minglab asarlar markazida davr muammolari, millat ijtimoiy hayotining og'riqli nuqtalari va ma'naviy dunyosining o'ziga xosliklari o'z aksini topdi. Turli davr va sharoitda minglab shoir va yozuvchilar ijod qildi. Ularning aksariyati millat taqdiriga qayg'urish, uni marifatparvarlar qatorida ko'rish yo'lida jon koyitishni o'z ijodining asosiy missiyasi sifatida belgilab oldi. Mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish bilan bir qatorda jahon adabiy maydonida yuz berayotgan o'zgarishlar va yangilanayotgan ijodiy jarayonlarni o'z asarlariga singdirish va shuningdek, uni kitobxon medasiga botmaydigan tarzda ifodalash kabilar milliy adabiyotimizda bo'y ko'rsata boshladi. Og'ir ijtimoiy davrda ong-u shuuri turfa noma'lumliklar orasida sarson bo'lgan xalqni asl haqiqat sari yetaklaydigan, minglab odamlarni o'z ortidan ergashtiradigan, milliy o'zligimiz, tub mohiyatimiz qayerga borib taqalishini ko'rsatib beradigan qahramonlar obrazlarini yaratish orqali tarixni to'g'ri talqin qilish, mudrab yotgan qadriyatlar va milliy g'ururni uyg'otish kabilar badiiy adabiyotning ustuvor vazifalaridan hisoblanishi bilan ahamiyatlidir. Ma'lum bir davrda adabiyotning vazifasi bir qadar og'irlashdi, xalq boshiga tushgan sinovlar bilan birgalikda toblandi. Haqiqatni aytgan tillar kallaklandi, erk deya ijod qilayotgan qalam sohiblari bo'g'ildi. Bir qadar buyurtmabozlikka, zamonasozlikka xizmat qildi. Bu kabi holatlar jadidlar faoliyatida yoxud qatag'on davri voqeliklarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Adabiyot Cho'lponning "Nega sening qalin dovshing ket demaydi ularga" degan isyonida, Fitratning "Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlarni, Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et" kabi da'vatida, Behbudiyning "Haq olinur, berilmas" kabi o'tli shiorlarida qaytadan ruhlandi. Mana shunday vaziyatlarda davr yukining og'irliklari ziyolilar zimmasiga tushdi.



Date: 1st November-2025



Istiqlol yillarida adabiy muhitga erkinlik berildi. Yo'q qilingan madaniy merosimiz qayta tiklana boshladi. Ko'plab "urho-ur"larda kaltaklangan adabiyotimiz asta-sekinlik bilan o'rganildi, tadqiq etildi va asosiy mohiyati to'g'ri talqin etildi. Yashirilgan badiiy haqiqatlar o'zining asl qadrini topdi. Bugungi kunda ham tadqiq ostiga olingan adabiy mavzular talaygina. Unutilgan siymolar nomini abadiylashtirish, tarixning atayin o'chirilgan qismlarini tiklash kabi ishlar jadal sur'atda ketmoqda. XX asr o'zbek adabiyoti tarixida o'zining betakror she'rlari bilan o'ziga xos munosib o'ringa ega bo'lgan ijodkorlardan biri Rauf Parfi ijodini o'rganish, tadqiq qilish, keng adabiy jamoatchilik tomonidan muhokama etilib, o'zining haqiqiy bahosini berish yo'lidagi say-harakatlar istiqlool yillarida birmuncha jadallashdi.

Ijodkor Berdi Rahmatning (Sharq yulduzi, № 04,2013.-B.167-170) "She'riyat bayramlari" deb nomlangan maqolasida Rauf Parfi ijodi, ayniqsa uning shaxsiyati haqida qaynoq xotiralar keltirilgan. Muallif turli davralarda shoir Rauf Parfi bilan bo'lgan suhbatlar, uning ijod va ijodkor haqidagi fikrlari, zamondosh yosh ijodkorlarning ishiga bergan bahosi haqida ro'y-rost yozadi. Rauf Parfi shaxsiyati haqida iliq so'zlar bitadi. Maqolada qaysidir she'riyat kechasida yosh shoirlar she'riga baho berish so'ralganda Rauf Parfining aytgan quyidagi kamtarona va ayni chog'da samimiy va o'rinli gaplari keltirib o'tiladi: "Men bu shoirlarning she'rlari haqida bir narsa deyishim qiyin, chunki yig'layotgan odamga, siz noto'g'ri yig'layapsiz deb bo'lmaydi" deya shoir o'zining xolisona bahosini berishi Rauf Parfining nafaqat she'riyatning katta bilimdoni, balki chin ma'nodagi haqiqiy inson ekanligini ham ko'rsatadi. Negaki ijodkor borki, o'zining ovozi, o'zining uslubi bo'ladi. Haqiqiy ijodkor kimdir ko'rsatib qo'ygan yo'ldan yurmaydi. O'z tafakkuri, o'zining badiiy haqiqatlari bo'ladi. Zero, Asqad Muxtor "She'r shoirning ijtimoiy vijdoni"deganda to'laqonli haq bo'lganidek, Rauf Parfining yuqoridagi fikrlari ham bor gap. Berdi Rahmatning ushbu xotira maqolasida Rauf Parfi she'rlari va uning ham shoir, ham inson sifatidagi o'ziga xosliklari, takrorlanmas qirralari haqiida qayta-qayta fikr yuritiladi, shoir haqidagi asosli esdaliklar o'ziga xos badiiy bo'yoqlarda aks ettiriladi. Quyida aytilgan fikrlarda ham shoirning hayotdagi asosiy maslagi qayd etilgandek edi go'yo: "Rauf Parfi hech qachon mukofotlarga intilmadi. U xalqni ezib kelayotgan tuzumning sadaqalaridan hazar qiladi. U hech kimning ustidan kulmas, hammani o'ziday teng ko'rar edi. Uning do'stlari oddiy odamlar edi. U doim bir narsadan kulib o'tdi. Bosqinchi yovlarga madhiya bitgan, qonxo'r partiyani olqishlab she'r yozganlar ustidan kuldi. U amalga intilmadi. Amaldorlarga yaltoqlanmadi. Yaltoqlanganlarga nafrat bilan qaradi. Rauf Parfini ustoz deya e'zozlaganlar keyinchalik turli amal kursilarini egalladilar. Shoir esa so'zga sodiqligicha qolaverdi".Darhaqiqat shoir ijodini kuzatar ekanmiz she'riyatni qismat deya bilgan haq so'zni hayiqmasdan ayta oladigan chinakam ijodkor idrokini his etamiz.

Rauf Parfi ijodini o'rganish, uning ijodini tadqiq qilish adabiyotshunoslarimizdan katta salohiyat talab etishi turgan gap. Negaki Rauf Parfi ijodi yoniq ruhiyat bilan sug'orilgan. Unda Vatanni suyish, millat taqdiriga kuyinish, tilimiz, madaniyatimiz, alalxusus, o'zligimizni yo'qotmaslik, o'zbekligimizni yo'qotmaslik masalasi doim

Date: 1st November-2025



yetakchi bo'lgan. Bugun shoir ijodini o'rgangan munaqqid olimlar, shoir haqida so'z yuritgan, go'zal xotiralarni qayta tiriltirgan ijodkorlarning yozganlarini qayta varaqlab ular orasida Rauf Parfining qizi Muqaddas Abdurahmonova tominidan e'lon qilingan "Ota" nomli esse diqqatimni tortdi. Unda bir farzandning yuragida otasiga bo'lgan mehr va muhabbatdan yaralgan sog'inchli xotirlash yozilishi bilan birga o'zbekning haqiqiy sobitqadam ijodkori, chin ma'noda katta jasorat, buyuk qalb egasi bo'lgan haqiqiy so'z sardori haqida teran fikrlar yuritilgan. Esseda shoirning shaxsiy hayoti, oilasi haqida bir qancha faktlar, ma'lumotlar keltirilib, shaxsan shoiraning qizi tomonidan to'g'riligi tasdiqlanishi bilan bir qatorda, chinakam ijodorning farzandlar taqdiriga befarq bo'lmagan ota, til va madaniyatimiz, turkona tafakkurimizni unuttirishga zo'r berib urinilayotgan bir paytda Cho'lponni, Fitratni tanitishni o'z bolasidan boshlagan ota shoirning qiyofasi, millatning fidoyi vakili qiyofasi badiiy chizgilarda akslantiriladi. Esseda shoir boshidan kechirgan og'irchiliklar ham bir qadar muallif tomonidan yozib o'tilgan. Qanchalik qiyinchilikka duch kelmasin moddiyatga qiziqmagan chinakam ijod kishisi haqida samimiy satrlar qog'ozga to'kilgan. Esseda keltirilgan quyidagi jumlar ko'z o'ngimizda shoirning jasoratidan bir lavha gavdalandirgandek bo'ladi: "Moddiyat tushunchasi hech qachon qiziqtirmadi, O'zlarining iboralari bilan aytganda, "kichik vatan" uchun emas, "katta vatan" uchun, she'riyat uchun, xalq, millat uchun yashadi. Otam uchun "Xalq shoiri" unvoni ham bir "qog'ozcha" edi. Kitoblari nashr etilmayotgan, hech narsa, hatto nonga zor bo'lgan Turkiya, Germaniyadan yashash uchun borishga takliflar bo'ldi. Ammo barchasiga rad javobini berdilar. Hech kimga hech qachon qila olmaydigan ishlari uchun va'da bermaganlar". Ushbu ta'riflar shoirning shaxsiyatidan so'z ochadi. Uning Vatanga bo'lgan muhabbatini esa she'rlaridagi yoniq ruhiyat, ko'tarinki ishonch, istiqbol sari chorlov kayfiyati yana bir marotaba isbot etadi.

Lirikaning boshqa adabiy turlardan asosiy farqi his-tuyg'ular tarannum etilganligi, voqeabandlikdan ko'ra ruhiy holatlar tasviriga keng o'rin berilishi, sezimlarimiz ifodasi kuchliligi ko'p marotaba aytib o'tilgan. Darhaqiqat, hech bir tur lirikadek kayfiyat bera olmaydi. Unda nafaqat so'z sehri, balki soz sehri ham mujassamdek go'yo. Go'zal yozilgan she'rlar kishi botinida o'zgalarga sezilmas xirgoyilarga sabab bo'ladi. Lirikada milliy ruh, milliy an'analarimiz, unutilmas qadriyatlarimizni kuylash esa she'riyatning umrini yanada boqiy qiladi.

Rauf Parfi ijodida bevosita ana shunday so'z sehri, soz sehri, vatanparvar shoir hirgoyisi bevosita o'qirman ko'ngliga ko'chib o'tadi. Sh'er ko'ngil mulki. Unda ijodkor yoxud tanlangan obraz, lirik qahramon qalbida kechayotgan sezimlar asta-sekinlik bilan misralarga to'kiladi. She'rda tortinish, iymanish bo'lmaydi. Dildagi o'rtanishlarni ham, quvonch-u kuyinishlarni ham shoir so'z va soz sehriga aylantiradi. Rauf Parfi ijodi takrorlanmas hodisa. Unga oshno tutingan qalb shoir she'riyatining "ochilmagan badiiy qo'riq"larine qayta-qayta kashf etadi. Filologiya fanlari doktori, professor Bekmurod Yo'ldoshev ta'kidlaganidek: (Buxoro mavjlari. №4, 2015. B.6-8) "Rauf Parfi ijodi faqat yangi o'zbek adabiyoti emas, balki umumturk she'riyatida ham alohida o'rin tutadi. U o'tgan asrning 60-yillarida adabiyotimizga o'ziga xos ohang bilan kirib kelgan edi.

Date: 1st November-2025



Dastlabki she’ri o’n yoshida yozilgan bo’lib, u endi qanday yashaymiz sarlavhali marsiya edi. Shoir ilk ijodini marsiyadan boshlagani bejiz emas. Bu hazin, raufona ohang shoir sifatida shakllanganidan keyin ham uning butun ijodiga xos xususiyatlardan biri bo’lib qoldi. Rauf Parfining xilma-xil mavzuga oid ko’pgina she’rlaridan ana shunday hazin ohangni ilg’ab olishimiz qiyin emas”. Ushbu jumlar kishini ancha o’yga toldirishi, shoir ijodi haqida mushohada yuritishga undashi tabiiy. Darhaqiqat, hali konfet lazzati-yu, koptok zavqi bilan xayoli band bo’lishi kerak bo’lgan bola yoshidayoq shoirni marsiya yozishga undagan kuch nima edi? Axir shoir u paytda nigohlari kamalakni ko’rib hayratlanishi, varrak ortidan yugurib shodlanishi kerak bo’lgan paytda “Endi qanday yashaymiz?” deya istiqbolga ishonchsiz boqishi nimaning hosilasi edi? Xalqimizda “Bo’ladigan bola boshidan ma’lum” degan gapning haqligiga isbotmi bu. Nega aynan shoir o’n yoshida qishlog’i, o’ynab yurgan jajji kuchukchasi, onasi yopib bergan kulchasi haqida she’r yozmadi-yu ertangi kun haqida qayg’ulari haqida yozdi. Zotan, yosh bolaning ko’nglida shu qadar og’riq bormidiki diliga sig’madi, qog’ozgga tushdi. Bu kayfiyat shoir ijodining keying bosqichlarida ham ko’zga tashlanadi. Negaki shoir haqiqiy ijod kishisi. Haqiqiy millat farzandi. U Vatan taqdiri, uning boshiga yopirilayotgan qora bulutlar ostida befarq osmonga qo’rquv bilan ko’z tikib turadiganlar toifasidan emas. Shoir she’riyat so’qmoqlarida o’lib tirildi. Poeziya imkoniyatlarini kengaytirish, jahon adabiyotidan oziqlanib, badiiyatning yangi imkoniyatlariga qo’l urish, nodir asarlar yaratish, milliy she’riyatimizga yangicha ruh bag’ishlash yo’lida teran harakatlar qildi. Bu intilishlar samarasi o’laroq Rauf Parfining “Karvon yo’li”(1968), “Aks-sad0”(1970), “Tasvir”(1973), “Xotirot”(1975), “Ko’zlar”(1977), “Qaytish”(1978), “Sabr daraxti”(1986), “Sukunat”(1989), “Tavba”(2000) kabi asarlari maydonga keldi. (Bu haqida ham yuqorida aytib o’tilgan maqolada berib o’tilgan). Shoir ijodi adabiyot imkoniyatlarining nechog’lik keng ekanligini ko’rsatadi. Ijodini harakatga keltiruvchi asosiy kuch, ilhomining asosiy manbayi inson, uning erki, huquqi, istiqboli, Vatan, shan, millat va uning keahgi kuni, buguni va ertasi ekanligi ham quyidagi misralardagi shoirning iqrori yanglig’ jaranglaydi:

Ne ellar, vatanlar gulxanda yonib,
Shoir ko’z o’ngidan o’tadi bir-bir.
Barchaning dardini o’ziga olib,
Majnun bo’lib yurar shuning-chun shoir.
Hali bo’g’izlarda bo’g’ilar nafas
Eski yaralardan chak-chak tomar qon.
Shoirni kuylatgan tabiat emas
Shoirni kuylatgan Hazrati inson.

Darhaqiqat, haqiqiy she’r har qadamda bajariladigan yumush emaski, uni buyurtma qilingan joyda, vaqtda yozib bergulik. Haqiqiy ilhom bilan, chin istedod bilan yozilgan she’rlar yozuvchi va nihoyat o’quvchini ham sel qilib yuborguday qudratga ega. Rauf Parfi ijodi she’riyatdan hech narsa talab qilmaydigan seldek ilhom natijasidir. Shoir faqatgina dilda borini yozadi. Atrofadagi kimo’zarga tug’ilayotgan she’rlar va ularning o’quvchi she’rxonlarga achinish hissi bilan yozadi.

Date: 1st November-2025



. Darhaqiqat, kimda havas, kimda yana allanimalar sabab, kimdadir chinakam ijodkorlik sabab she'r dunyoga keladi. Adabiyot esa har birini o'z "mehmon"i sifatida qabul qiladi. Ammo bu maydonda turmoq unchalik ham oson emas. Shu sabab bu maydonni erta tark etuvchilar ham uchrab turadi. Adabiyot shunday manzil ekanki, unda yo'lovchi, mehmonlar ko'p, biroq u oz'ining asil mezbonlarini, egalarini albatta, topib oladi. Ularni haqiqiy mezbon qilgan esa yoniq istedod, chinakam ijoddir. Takrorlanmas asarlarigina o'z mualliflarini o'lmas insonga aylantira oladi. Ijodini bardavom, nomini abadiyatga daxldor qiladi. Zero, Muhammad Yusuf ta'biri bilan aytganda: "Yurakka ko'milar asil shoirlar".⁴⁴

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning "Hissiy tafakkur shoiri" :(Buxoro mavjlari.№4 , 2015. B.6-8) deb nomlangan Rauf Parfi haqidagi xotira tezisida shoirning nafaqat she'riyati haqida balki, shaxsiyati haqida ham qiziq gaplar aytiladi. Rauf Parfi she'rlarida jiddiy o'y, jiddiy fikrlar bayon etilsa-da, uning o'zi bir qadar hazil-mutoyibaga moyilligi haqida yozadi. Haqiqiy shoirning yagona o'ylovi she'r ekanligi, she'riyat ekanligini va bu xususiyat aynan Rauf Parfi haqida ekanligini yozadi. Adabiyotshunos tominida shoir haqida haq gaplar bitiladi"Adabiyotga qiziqish bir qadar susaysa, she'r va shoir haqida so'zlash mushkul. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ushbu fikrning hech qachon haqiqiy she'rga aloqasi bo'lmaganidek, chin shoirga ham tegishli joyi bo'lmaydi. Har qanqa sharoitda ham Rauf Parfiga o'xshash iste'dodlar she'r va shoir haqida barilla so'zlashga imkon beradi. Xullas, Rauf Parfi –she'riyat bo'stonidagi ildizi chuqur, ko'rkam va hosildor bie "Sabr daraxti".

She'r va shoir, Vatan va vatanparvarlik, ta'sir va ta'sirchanlik. Ushbu tushunchalar yakdillashib adabiyotda ijod maydonini tashkil etadi. Ijod shukim, yillar to'zonida qaqragan ko'ngillarga suv tutuvchi irmoq, quruqshagan tafakkurimizni tetiklashtiruvchi turtki. Qo'yingki, butun mulk-u dunyomizni hayrat dengiziga g'arq etuvchi mo'jizadir. Ijodkor esa biz anglab ololmaydigan yashirin go'zalliklarni ilg'ay oladigan tiyrak ko'z va qolaversa uni ijodda ko'rsatib bera oladigan ko'zgudir. Atrofga nazar solsak, yaxshilik ham turli ko'rinishda. Tabir joiz bo'lsa, kitobxonga tuhfa etilgan yaxshi asar ham aslida yaxshiliklarning eng sarasidir desak, yanglish fikr bo'lmaydi. Ana shunday xayrli ishlarning katta hissadorlaridan biri zamonaviy o'zbek she'riyatining katta bilimdoni Rauf Parfi ekanligini takror-takror ta'kidlansa ham xato bo'lmaydi. Shoir Chorsham Ro'ziyev taklifiga binoan yozilgan O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Nazmi Fozilovanning "Rauf Parfi og'amdek edi" nomli xotiralarida shoirning biz anglab yeta olmaydigan tiyrak nigohi, shoirona didi, falsafiy she'riyati haqida so'z ketadi."G'ayritabiiy xarakterga ega bo'lgan Rauf akani hech narsa bilan ajablantira olmasdingiz, lekin muhlislaridan birortasi favqulodda bironta she'r yozib kelib o'qib bersa, Rauf aka bolalardek xayajonlanib o'zini tutolmay qolardi. Shoirni faqat yaxshi she'r bilan shaydo qilish mumkin edi". Haqiqiy yaqinlik hissi sezilib turgan bu samimiy so'zlar bir dam o'quvchini Rauf Parfi ruhi bilan yaqinlashtiradi.

⁴⁴ Muhammad Yusuf. "Saylanma". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent. 2012-yil. 171-bet

Date: 1st November-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Rauf Parfi. Tanlangan asarlar. Adabiyot nashriyoti. Toshkent. 2023.-B-74
- 2.Rauf Parfi hikmatlari. Buxoro mavjlari adabiy-badiiy, ijtimoiy-marifiy jurnali. Buxoro.2015-B-16-17
- 3.Sulaymon Rahmon.Sharq yulduzi jurnali.Toshkent.2023-B-98-114

